

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ш.М.Султонова, Н.Б.Усмонова

Особенности формирования колористической медицинской терминологии (на примере русских, латинских, греческих и немецких названий болезней) 453

Sh.M.Sultonova, M.B.Otaboyeva

Bilingv bolalar nutqidagi agrammatizmlarning psixolingistik asoslari 458

G.X.Nurmatova

korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning ilmiy-nazariy muammolari 463

Z.Sh.Pazilova

O'zbek va Nemis xalqlarida to'ydan avval, to'y kuni va to'ydan keyin o'tkaziladigan urf-odatlar 469

Y.Sh.Shuxratova

O'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar 472

M.E.Umarxo'jayev, N.F.Tursunova

National-cultural semantics of phraseology: an exploration into the heart of idioms and expressions 475

N.R.Umarova, D.M.Xayitova

Tilshunoslikda koloronimlar va ularning kognitiv talqini 478

TILSHUNOSLIKDA KOLORONIMLAR VA ULARNING KOGNITIV TALQINI

COLORONYM AND THEIR COGNITIVE INTERPRETATION IN LINGUISTICS

**КОЛОРОНИМЫ И ИХ КОГНИТИВНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ
В ЛИНГВИСТИКЕ**

Umarova Nargizaxon Rustamovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Xayitova Dilshoda Murodjonovna²

²Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada ranglar haqida nazariy tushunchalar lingvokognitiv jihatdan bayon etilgan bo'lib, kognitiv moddiy dunyoning ajralmas qismi bo'lgan ranglarning anglash bilan bog'liq subyektivlik bayon etilgan. Kolorinimlar tadqiqiga maqolada leksik-semantik, grammatik va kognitiv jihatdan yondashilgan.

Аннотация

В этой статье изложены теоретические концепции цвета, а также роль и влияние цветов, которые являются неотъемлемой частью материального мира в когнитивной лингвистике. В статье к исследованию колоринимов подойдут лексико-семантически, грамматически и познавательно.

Abstract

This article describes theoretical concepts about colors and describes the role and influence of colours that are an integral part of the material world in cognitive linguistics. The colorinim study was approached lexically-semantically, grammatically, and cognitively in the paper.

Kalit so'zlar: kolorinim, rang, rang nomlari, mental jarayonlar, lisoniy faoliyat, kognitiv tilshunoslik, leksik-semantik, grammatik.

Ключевые слова: колоринимы, цвет, названия цветов, психические процессы, языковая деятельность, познавательная лингвистика, лексико-семантическая, грамматическая, познавательная.

Key words: colorinim, cognitive linguistics, lexical-semantic, grammatical, cognitive.

KIRISH

Insonga berilgan ko'rish qobiliyati bois u ranglarni ajratish imkoniga ega va buning natijasida inson atrof-olamni to'liqroq tushunadi va anlaydi. Rangni ko'rish – bu mohiyatan tashqi dunyo haqida ma'lumotlarni katta miqdorda, aytish joiz bo'lsa, cheksiz qabul qilish va qayta ishlash imkoniyatidir. E.V.Raxilina bu borada rangning beqiyos xizmatini alohida ta'kidlar ekan, moddiy olamning bir obyektni unga o'xshash boshqa obyektdan farqlashda rangning o'ziga xos lingvistik vazifasiga e'tibor qaratadi. Ranglarning ushbu diskriminativ vazifasi, ayniqsa, ko'p nusxada mavjud bo'lgan obyektlar bilan bog'liq hollarda yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni rangning lingvistik tabiatini dolzarblik kasb etadi va uni lingvistik vositalar bilan tavsiflash imkon ortadi. [21, 268-278]

Moddiy dunyoning ajralmas qismi bo'lgan rang bizni o'rab turgan borliqda namoyon bo'ladi va bu olamni tashkil etuvchilari orasida asosiysi va eng muhimlaridan biri sifatida namoyon bo'luvchi vizual tuyg'ular hisoblanadi. Bu jihatdan "...rang hissiyotlari ko'rish sezgilarining umumiy tizimiga kiradi, va ikki toifaga ajraladi: rangsiz (axromatik), masalan, oq, qora, kulrang va ularning tuslari hamda rangli (xromatik) hissiyotlar, masalan, qizil, yashil, ko'k, moviy va boshqalar. Ba'zan ular orasidagi farqlar shu darajada namoyon bo'ladi, natijada ranglar tusi, yorug'lilik va to'yinganlik nuqtayi nazaridan ham farqlanadi. Ranglarning yaqinlik darajasidagi farqlar kichik farqlar bo'lib, ular rangsizlik (akromatik rang) dan oq ranggacha oralidagi bo'ladi. Ranglarga xos to'yinganlik holati – bu ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan darajadagi xromatik rangga xos rang jilosidir". [14,3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyoni bilishning hissiy-majoziy shakli ustuvorligi natijasida rang o'zining inson hissiy holatiga ta'sir qilish qobiliyati, madaniyat konstantasi ekanligi va eng qadimgi muhim semiotik tizim sifatida katta miqdordagi ma'lumotlarni mujassamlagan olam manzarasining bir qismi hisoblanadi. Rang inson uchun nafaqat obyektiv xususiyatga ega, balki baho ifodalovchi axloqiy va estetik

TILSHUNOSLIK

kategoriya sifatida jamiyat normalari va munosabatlarini ham o'zida aks ettiradi. Ranglar olami o'z mohiyatiga ko'ra kognitivdir.

Bu o'rinda aytish mumkinki, moddiy olamdag'i obyektlarning rang doirasidagi idroki kognitiv faoliyatning asosiy aspektlaridan biridir. Har qanday rang inson tafakkurida muayyan kayfiyat va iliqliklikni uyg'otadi, shuningdek, aniqlikka va ma'lum tasvirga ega. Bu borada "rangning inson ruhiyatiga o'ziga xos hissiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatini ham inkor etib bo'lmaydi".[8, 20] Bundan tashqari, tabiatda qanday rang bo'lishidan qat'iy nazar, inson ongida u muayyan tasvir ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, spektr rangining har biri o'z tasviriga ega va yana har bir til egasida ular mutlaqo individualdir.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kechadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bog'liq holda o'rganishdir. Shunga ko'ra, ushbu fanning erishgan asosiy yutuqlaridan biri insonning bilish faoliyati natijasida xotirada hosil bo'ladigan oldingi tajribaning "iz"lari, [22,53] ya'ni kategorial tushuncha hamda turli ko'rinishdagi yuqori darajadagi tarkibli tuzilmalarning mantiqiy va lisoniy tizimlari haqidagi ma'lumotlar to'plamidir.

Inson hayotida rang omili bo'limgan sohani topishning o'zi imkonsizdir. Biz, masalan, rangin (baxtiyorlik) hayot der ekanmiz, eng avvalo uni rangsiz (bebaxtlik) hayotga qarama-qarshi qo'yamiz.

Jahon tilshunosligida rang nomlari uchun "koloronim" termini qabul qilingan. "Koloronim" (lotincha rang "rang" + yunoncha "nom") va "xromatonim" (yunoncha xroma "rang" + onim "ism" dan) terminlarining fanga kiritilishi ranglar bo'yicha muayyan terminologik birliklarni yaratishga urinish natijasidir. Ta'kidlash joizki, bu borada lotincha "koloronym" atamasi ko'proq muvaffaqiyatlil chiqqan. O'zbek tilida esa bu umumtermin o'rnida "rang nomlari" atamasi qo'llanib kelinadi.

"Rang" tushunchasi ingliz tadbiquotchisi A.Munsell nomi bilan bog'liq bo'lib, XX asr boshlarida o'rganila boshlangan. Olim ranglarning barcha imkoniyatlari doirasida beshta asosiy rang (qizil, sariq, yashil, ko'k va binafsha) ni ajratadi. Bundan tashqari, dastlabki to'rtta asosiy xromatik (rangli) ranglar ham mavjud bo'lib, "issiq" ranglar (qizil va sariq), "sovuv" ranglar esa (ko'k va yashil) rangga bo'linadi. [13, 247] Beranglik/rangsizlik tushunchasi uchun "axromatik" termini qo'llaniladi.

Tildagi koloronimlar lug'ati kelib chiqishi o'zining qadimiyligi, ko'pchilik til tizimlarida rang atamalari semantikasiga xos murakkablik rangning inson faoliyatidagi muhim kognitiv tuzilma ekanligini tasdiqlaydi. Olimlar ranglar sohasida uzoq vaqtidan beri izlanishlar olib borganlar. Rang ko'plab fanlar – fiziologiya, psixologiya, tarix, tilshunoslik, etnologiyaning o'rganish obyekti sanaladi. V.I.Sherts (1884), B.Berlin, P.Kay (1969), U.Tyorner (1983), M.Brusatin (2006), J.Pavlik (2007) va boshqalar [25, 71-103] dunyo xalqlari madaniyatida ranglar tadrijini turli yo'nalishda o'rganganlar.

Lingvistik ilmiy adabiyotlarda koloronimlar tarkibi, ularning semantik tuzilishi;[21, 296] ranglar lug'atining etimologiyasi va tarixi; [2, 296] tarjima aspektidagi rang belgilari;[5,23] san'at asarlardagi rang funksiyalari;[12,80-87] [rang metaforalari;[20,567] rang barqaror birikmalar komponentining bir qismi sifatida [11,214] ko'rib chiqilgan. Ko'pgina ishlar esa individual rang atamalarini tahlil qilishga bag'ishlangan, asosan qizil rang. [7, 256] Psixolingvistikada ham rang ma'nosi asosidagi leksik tizimni o'rganishda muhim natijalarga erishilgan. [6, 47-57]

Aslida "ranglar bizning ongimizda o'z-o'zidan mavjud. Tilimizdag'i qizil, ko'k, to'q sariq so'zları ongimizda ma'lum bir "rang tasviri"ni yaratadi. Shu bilan birga, atrofimizdag'i olamda rang aniq obyektlar rangidan tashqarida mavjud emas va u doimo o'zi bog'liq bo'lgan obyektlarning har qanday turi/sinfi va mustaqil denotati sifatida mavjud emas". [17, 489] Ranglar bizni o'rab turgan obyektlarga tegishliligi bilan insonning ko'p yillik vizual tajribasi asosida shaxsiy shakllanish xususiyatiga ham ega. Tabiiyki, buni biz turli mo'yqalam sohiblari tomonidan polotnoga aynan bir voqeikning turli ranglar vositasida tasvirlanishi bilan qiyoslashimiz mumkin.

Inson azaldanoq atrof-olamni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirar ekan, o'zini qurshab turgan rangin olam haqida noto'g'ri qarashlarni ham ilgari suradi. Mashhur kognitiv tilshunos J.Lakoff fikricha, ranglarning o'ziga xosligini namoyon etuvchi obyektiv dunyoning umuman o'zi yo'q, ya'ni rang subyektivdir "... deyish xato bo'lardi, negaki shaxsga xos bo'lgan kategoriyalar obyektiv ravishda inson omilidan tashqarida moddiy olamda mavjud. Rang tushunchasida, hech bo'limganda, ba'zi kategoriyalar mujassamlangandir. Masalan, rang

kategoriyasi obyektiv moddiy dunyo va inson biologiyasining o'ziga xos xususiyatlari, inson tafakkuri va madaniy omillar sifatida bir vaqtning o'zida aniqlanadi". [18,166]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning konseptual hamda kognitiv tuzilmalaridagi ma'lumotlar manbayi sifatida tushunishga yordam beradi. Til o'zida bizning dunyomiz haqidagi bilimlarning turli-tuman tuzilishilarini miyamizda mavjudligi dalolatini namoyon qiladi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektini yaxlitlashtirish va leksik ma'nodagi tarkibiy qismalarni taqdim etish usullarini kengaytirishga imkon beradi. Kognitiv lingvistikada barcha til jarayonlari insonning bilish faoliyati bilan bog'liqdir.[24, 36]

Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki vogelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir. [15,47] Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi. [15,51]

Rang hodisasini kognitiv jihatdan tushuntirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim sanaladi: o'z doirasda insonni va obyektiv olamni o'rab turgan mavjud bioto'lqinlar ma'lum bir uzunkorda bo'lsa-da, lekin ularning ba'zilari faqat insonning ko'rish va idrok etish qobiliyati tufayligina (boshqa hislar bilan bir qatorda) rangin bo'ladi. Insonning turli xil ko'rish patologiyalari, xususan, rang idrok etmaslik (rang ko'rligi) obyektiv ravishda mavjud ekanligini bu haqdagi qarashlar ham tasdiqlaydi. Qadim davrlardayoq hissiy idrokning barcha turlari - ko'rish, eshitish, ta'm, hid, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, obyektiv ekanligi qayd etilgan. Ikki inson ongida bir xil rang sinishi ehtimolini istisno qilib bo'lmaydi. Ranglar shaxslar tomonidan turlicha talqin qilinadi va shuning uchun ham ular individual nutqda turli ifoda vositalari bilan beriladi.

Hamma vaqt olimlar rang muammolari yechimini tadqiq etganlar. Ushbu sohadagi so'nggi tadqiqotlar qanday ranglar borligini aniq ko'rsatdi. Odamda ma'lum bir fiziologik tizimni tashkil etuvchi 10 ta pigment genlar rang uchun javobgar bo'lib, shuning uchun ikki kishi bir xil obyektga qarashi, ammo uning rangini har kim o'z holicha tasavvur qilishi mumkin. Tadqiqotchilar miya neyronlari ranglar haqidagi tushunchalarni va so'zlarni ifodalashini aniqlashdi, bu tushunchalar hamda so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik turli madaniyatlarda rangga bo'lgan ta'sirlarda nima uchun farq borligini tushuntirish imkoniyatini beradi (masalan, islomiy nuqtayi nazardan yashil rang jannatning va ramziy ma'noda hayot davomiyligi belgisi ekanligi, o'zbek milliy madaniyatida oq rang yorug'lik belgisi bo'lgani holda, hindistonda motam belgisi ekanligi bunga misol bo'la oladi). Bu insondagi rang tilining kogitiv ekanligini tasdiqlaydi.

Rang mavjudligi haqida fiziologik yondashuv doirasida uch xil o'chovdag'i xususiyatni – rang, yorqinlilik va to'yinganlikni – ma'lum uzunkodagi yorug'lik to'lqini ta'sirida aslida insondagi vizual retseptorlar rang hissini keltirib chiqarishi e'tiborga olinadi. "Jismoniy jihatdan esa fizik miqdorlar va parametrlardan foydalananib rangni o'chash orqali tildan ajratib ko'rsatish mumkin. Rang atamalar bilan ifodalanganda tabiiy til, ya'ni antropologik kategoriya sanaladi". [16, 37]

Rangni tushunish uchun tabiatshunoslik bilish paradigmidan foyadlanadi. Ushbu paradigma bir qator kamchiliklar va chekllov larga ega, chunki tabiiy fanlarda paradigma, insonni "atrof-muhitdag'i biologik organizm" darajasida tushuntiradi. Natijada rang qiymatdan mahrum bo'lgan "moddiy" hodisa sifatida talqin qilinadi va "... rangni bilishning yangi – gumanitar paradigmasi asoslab beriladi, uning ichida "gumanitar paradigmadagi rang hodisasi uch yo'nalishda ko'rib chiqiladi, ya'ni inson hayotida turlicha, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan semiotik-funksional jihatlar: ta'sirchanlik, ifodaviylik va ramziylik" kabi. [8, 12-15]

Rang ma'nosini hisobga olmay turib, ko'pgina madaniy hodisalarni tushuntirishning imkoniy yo'q. Rang kontseptualizatsiyasi allaqachon tillarda madaniyatlar rivojlanishning dastlabki bosqichidayoq sodir bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Rang inson madaniyatining asosiy kategoriyalardan biri sifatida namoyon bo'lib, "atrofdagi tabiatning rangi haqida noyob ma'lumotlarni o'rganish asnosida xalq tarixining o'ziga xosligi, turli etnoslarning o'zaro ta'siri an'analarda, olamning badiiy manzarasida aks etishi" [10, 109] uning nominativ vosita sifatidagi alohida ahamiyatini korasatadi.

Rang ma'no elementi vazifasini bajaradi uning yordamida o'z madaniyatingizni – obyektlarni, ijtimoiy munosabatlarni, axloqiy va estetik tushunchalarni tavsiflashimiz, tizimlashtirishimiz mumkin bo'ladi. Ba'zi so'zlar "rang" tushunchasi bilan semantik jihatdan bog'liq

TILSHUNOSLIK

(masalan, binafsha, yo'l-yo'l, ko'k), lekin ular ma'nō jihatidan bir xil emas. Masalan, o'zbek tilida yashil so'zi och yoki to'q tusdagi ayni bir rangga nisbatan ishlatsa, ko'k faqat shu rangning to'q tusiga nisbatan qo'llanadi. Bu rangning och tusiga nisbatan esa moviy, havo rang so'zleri ishlatildi.

Ranglar masalasi etnologiya va psixologiyaning ham o'rganish obyekti sanaladi [3,356]

Rang semantikasini o'rganishda tilshunos olimlarning qo'shgan hissasi lingvistikaga oid fanlar – etnolingvistika va psixolingvistika fanlari doirasida ayniqsa qimmatli va ahamiyatlidir. Bu borada olib borilgan asosiy tadqiqotchilar doirasida Sokolov, Izmailov, Vasilyevich, Frumkina, Mixeyev, Terexova, Frumkina [23, 231] larning nomlarini keltirish mumkin. Chunki har bir tilda rang bilan bog'liq semantik guruuhlar eng qiziqarli tadqiqot mavzularidan biri bo'lib, turli oilalar tillaridagi ranglar guruuhlari o'rganilgan turli tizimdag'i tillarda rang semantikasi doirasida Makeyenkonning kandidatlik dissertatsiyasini [19, 24] misol qilib keltish mumkin. Bu borada rang nomlarining shakllanishidagi farq va o'xshashliklar hind-yevropa tillari oilasi misolida 2007-yilda Raxilina va boshqalar tomonidan o'rganilgan. [21, 211-225]

Tilshunoslikda rang nomlari bo'yicha tadqiqotlar olti yondashuvni o'z ichiga oladi: tarixiy, leksik-semantik, grammatik, kognitiv, funksional, qiyosiy.

"Rang" semantik maydoniga funksional yondashuvda individual muallifning rang tushunchalari va ularning matnda qo'llanishi, badiiy asarning rang semantikasi tizimida rang ifodalovchi til birliklari masalasiga e'tibor qaratiladi. Badiiy matndagi koloronimlar mualliflarga asar g'oyasini olib berishga, ma'lum bir hissiy kayfiyatni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, rang nomlari badiiy asarda nutqning ifodaliligi va obrazlilagini kuchaytiruvchi vosita bo'lib, pragmatikaning aktualizatorlari bo'lgan troplar va stilistik figuralar doirasida nutqning subyektiv komponenti sifatida tadqiq etiladi.

Badiiy nutqda rang nomlaridan foydalanish doirasidagi tarixiy yondashuvlarga [2,296] Baxilina, Vasilyevich, Kuznetsova, Mishchenko, Normanskaya va boshqa olimlarning tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Alovida so'zlar va so'z turkumlarining rangni nomlash tarixini o'rganish koloronimlar semantik guruuhlarining shakllanish jarayoni, shuningdek, ma'lum bir davrda tilning lug'at tarkibi taraqqiyotidagi ranglar o'rnni yoritish imkoniyatini beradi.

Rang nomlari tadqiqiga leksik-semantik yondashuvda [1, 80-87] olimlar tildagi rang tizimining hozirgi holatiga e'tibor berishadi. Bunda semantik strukturaning rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqiladi, individual ranglar, asosiy rangga qo'shimcha majoziy ranglarning vujudga kelishi, ranglarning ramziy ma'holari, ranglar asosida leksik-semantik guruhlarning shakllanishi masalasiga e'tibor qaratiladi. Yana bu yo'nalishda milliy qadriyatlar umumiyligiga asoslanib, rang ifodalovchi so'zlarni guruuhlar bo'yicha tasniflash, shuningdek, badiiy matnda qo'llanilgan rang nomlari va ularning nutqiy ko'chma ma'nolari ham aniqlanadi.

Koloronimlar tadqiqiga grammatik yondashuvda ularning morfologik va sintaktik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Bu yerda ifoda etilgan so'z turkumining morfologik va sintaktik o'ziga xosligi, ba'zi hollarda qaysi poetik vazifada u yoki bu koloronim tomonidan ma'lum bir funksianing amalga oshirilishi e'tiborga olinadi.

Rang nomlari tadqiqiga kognitiv yondashuvda [4, 267-278] kognitiv semantika muammolari doirasida ranglar va ularni ifodalovchi lisoniy birliklarning o'quvchi idroki va hissiyotiga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini olib berish nazarda tutiladi.

Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni ongimiz va aqlimizning kontseptual hamda kognitiv tuzilishilaridagi ma'lumotlar manbayi sifatida tushunishga yordam beradi. Til o'zida bizning dunyomiz haqidagi bilimlarning turli-tuman tuzilishilarini miyamizda mavjudligi dalolatini namoyon qiladi. Kognitiv yondashuv tadqiqot obyektni yaxlitlashtirish va leksik ma'nodagi tarkibiy qismalarni taqdim etish usullarini kengaytirish imkoniga ega. [24, 36]

XULOSA

Xullas, rang asosida odamlar muayyan ma'nō va tushunchalarni ko'radi. Bu holatda biz yana vizual jarayonning obyektivlashuvi haqida emas, balki etnik xususiyatni obyektivlashirish haqida xulosa chiqarishimiz, inson miyasi yarim sharlarining o'zaro ta'siri haqida, ko'proq rangni idrok etish va belgilash jarayoni haqida gapirishimiz mumkin. Koloronimlar lingvistikasini mustaqil ilmiy fan sifatida o'rganish o'zining mustahkam nazariy va uslubiy bazasiga ega. Shunday bo'lsa-da, rang nomlarini o'rganishda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar bor.

ADABIYOTLAR RO'UXATI

1. Алимпиева Р.В. Семантическая значимость слова и структура лексико-семантической группы: (на материале прилагательных цветообозначений русского языка). - Л., 1986. - 256 с.; Качаева Л. Прилагательные, обозначающие цвет в произведениях А.И.Куприна // Уч. зап. ДВГУ. - 1968. - Т. XI. - с. 80-87.
2. Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. - М., 1975. - 296 с.
3. Васильевич А.П. Психолингвистическая значимость слов -цветообозначений в разных языках // Экспериментальные исследования в психолингвистике. - М., 1982. - 319 с.; Белов А.И. Цветовые этнодеймы как аспект этнопсихолингвистики // Этнопсихолингвистика. - М.: Наука, 1988, с. 49-58; Базыма Б.А. Психология цвета: Теория и практика [Текст] / Б.А. Базыма. - СПб.: Речь, 2005. - 356 с.
4. Вежбицкая А. Обозначения цвета и универсалии зрительного восприятия / Язык. Культура. Познание. - М.: Русские словари, 1996. - С.231-292; Рахилина Е.В. О цветном и бесцветном / Когнитивный анализ предметных имен. Семантика и сочетаемость. - М., 2000. - С. 267-278.
5. Дубровина К.Н. Семантико-стилистический анализ лирики Ф.Гарсиа Лорки (на материале цветообозначений). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - М., 1970. - 23 с.
6. Фрумкина Р. М. Цвет. Смысл. Сходство (аспекты психолингвистического анализа). - М., 1984. - 175 с.; Белов А.И. Цветовые этнодеймы как аспект этнопсихолингвистики // Этнопсихолингвистика. - М.: Наука, 1988, с. 49-58; Николаенко Н.Н. Взаимодействие полушарий мозга в процессе восприятия и обозначения цвета // Сенсорные системы. Сенсорные процессы и асимметрия полушарий. - Л., 1985. - С.47-57.
7. Иссерлин Е.М. История слова «красный» // Рус. яз. в школе. - №3, 1951. - С.8589; Алимпиева Р.В. Семантическая значимость слова и структура лексико-семантической группы: (на материале прилагательных цветообозначений русского языка). - Л., 1986. - 256 с.
8. Исаев А.А. Феномен цвета в контексте бытия человека: Опыт философского анализа; Автореф. дисс. ... канд. филос. наук. - Магнитогорск, 2006. - С.12-15.
9. Жаркынбекова Ш.К. Языковая концептуализация цвета в культуре и языках: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. - Алматы, 2004. - 36 с.
10. Жаркынбекова Ш.К. Моделирование концепта как метод выявления этнокультурной специфики // Мат-лы IX Конгр. МАПРЯЛ. - Братислава, 1999. - С.109.
11. Кайбияйнен А.А. Устойчивые атрибутивно-субстантивные сочетания с прилагательными цвета в современном русском языке. Дисс. канд. филол. наук. - Казань, 1996. - 214 с.
12. Качаева Л. Прилагательные, обозначающие цвет в произведениях А.И.Куприна // Уч. зап. ДВГУ. - 1968. - Т. XI. - с. 80-87.
13. Клейнер Ю.А. К этимологии латинских цветообозначений *flavus*, *fulvus* и *falvus* / Индоевропейское языкознание и классическая филология - XII. Матер. чтений, посв. памяти проф. И.М. Тронского. (23 -25.06.2008). РАН ИЛИ. СПб. 2008. - С. 247.
14. Клюева В.Н. Прилагательные, обозначающие цвет во фразеологических единицах. Уч. зап. 1-го МГПИИЯ, Том X. - М., 1956. - С.3.
15. Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. - М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. - С. 47.
16. Кульпина В.Г. Теоретические аспекты лингвистики цвета как научного направления сопоставительного языкоznания: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук.- М., 2002. - 37 с.
17. Кульпина В.Г. Лингвистика цвета: термины цвета в польском и русском языках. - М., 2001. - С.8. - 489 с.
18. Лакофф Дж. Когнитивная семантика // Язык и интеллект. - М.: Прогресс, 1996. - С.166.
19. Макеенко И.В. Семантика цвета в разноструктурных языках (универсальное и национальное): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Саратов, 1999. - 24 с.
20. Миронова Л.Н. Учение о цвете. - Минск, 1993. - 567 с.
21. Рахилина Е.В. О семантике прилагательных цвета // Наименования цвета в индоевропейских языках. Системный и исторический анализ. - М., 2007. с. 211-225.
22. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006. - Б.53.
23. Соколов Е.Н., Вучетич Г.Г., Измайлова Ч.А. К взаимосвязи эмоций и цвета // Эмоции и поведение: системный подход. - М., 1984. - С.275-277; Фрумкина Р.М., Михеев А.В., Терехина А.Ю. Экспериментальное изучение семантических отношений в группе слов-цветообозначений. - М., 1982. - 231 с.
24. Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқики: Филол. фан. д-ри ... дисс. (DSc). - Фарғона, 2021. - Б.36.
25. Шерцль В.И. Названия цветов и символическое значение их. - Воронеж, 1884. - 318 с.; Berlin P., Kay B. Basic color terms, their universality and evolution. - Berkeley; Los Angeles: U. of California Press, 1969. - 312 p.; Тэрнер В.У. Цветовая классификация в ритуалах Ндембу: Проблема невербальной классификации // Тэрнер В. Символ и ритуал. - М.: Наука, 1983. С.71-103.
26. Umarova N. Turkiy tillarda sariq rang konsepti va etimologiyasi. IX. Uluslararası türk dünyası araştırmaları sempozyumu. mustafa şokay oturumu. salon: 1453-a. 9 haziran 2022. - B.509-516.
27. Umarova N., Mahmudova O. Tilshunoslikda leksik ma'no va tushunchaning umumiy va xususiy xarakterlanishi. O'zMU xabarlari, 2022, [1/3]. ISSN: 2181-7324.
28. Umarova N., Shaxobiddinova Sh., Akbarova Z. Neyrolingvistik anning nazariy asoslari va metodlari. FarDU. Ilmiy xabarlar. 2023, 4-son. DOI: 10.56292/SJFSU/vol 29 iss4/a55. 2023, 3-son. - B. 284-289.
29. Umarova N., Tojiboyeva M. Lingvokulturologiyada konseptual tahlil metodologiyasi. FarDU. Ilmiy xabarlar, 2023. 4-son. DOI: 10.56292/SJFSU/vol 29 iss4/a55. - B.296-298.